

Talabalar Chirchiqda o'quv yig'ini mashg'ulotlarida


Oliy ta'lim muassasasida o'tilishi ko'zda tutilgan nazariy mashg'ulotlarni amaliy jihatdan mustahkamlash uchun harbiy tayyorgarlik yakunida talabalarning o'quv yig'ini o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu rejani amalga oshirish maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi rahbariyati, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti bilan o'zaro hamkorlik o'rnatib, talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida joriy yilning 2-3 iyul kunlari Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida mavjud zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv moddiy texnik bazadan foydalanib, mashg'ulotlar tashkil etildi.



Mashg'ulotlar podpolkovnik Rafik Minlishev rahbarligida o'tkazildi. Otish tayyorgarligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi tajribali ofitserlari podpolkovnik Nasrullo Boboev, Qurolli Kuchlar xizmatchilari Mannop Umirov, Axmadjon Achilovlar tashkil etilib, unda kursantlar Murod Shamsiev, Farhod Toxirov, Islom Fayzul-laevlar yuqori natijalarga erishdi. Shuningdek, jangovar mashinalarni amaliy haydash bo'yicha Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti tomonidan tayinlangan mashg'ulot rahbari podpolkovnik Jasur Yuldashev tomonidan zamonaviy trenajyorlarda tashkil etilib, kursantlar Erali Abdumajidov, Ilyos Yo'ldoshev, Sobir Boboevlar jangovar mashinalarni murakkab joy sharoitida, maksimal yuqori tezlikda harakatlantirishga erishdi. Ekipaj a'zolarining tank qurol-aslahalaridan foydalanishdagi harakatlarini o'rganish bo'yicha Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti tomonidan tayinlangan mashg'ulot rahbari podpolkovnik G'ayrat Arziev tomonidan o'tkazilgan mashg'ulotlarda kursantlar Siroj O'tamurodov, Sherzod Xoliqov, Akmal Abdumannonov, Omonullo Abdulmaxmudovlar ekipajlari boshqa ekipajlarga nisbatan yuqori tajribaga ega ekanliklarini amalda isbotlashdi. Bundan tashqari jangovar mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha Chirchiq oliy tank qo'mon-donlik muhandislik bilim yurti tomonidan tayinlangan mashg'ulot rahbari podpolkovnik Marat Muxamedxaresov tashkil etgan amaliy mashg'ulotda, kursantlar Sherzod Toshmatov, Nursulton Ibragimov, Ramazon Yo'ldoshev, Shoxrux Tilovmurodovlar yuqori natija ko'rsatdilar.



Mashg'ulotlar yakunida podpolkovnik Rafik Minlishev amaliy mashg'ulotlar davomida yuqori natijalarga erishgan mashg'ulot rahbarlariga Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rektorining faxriy yorliqlarini topshirdi.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Harbiy kafedra katta o'qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi Xaydar Ergashev axboroti

Instiut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov